

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

## ALISHER NAVOIY FARDLARIDA KOMIL AXLOQ MASALASI

**Aziza Almardonova Almamat Qizi**

*ToshDO‘TAU I bosqich tayanch doktoranti*

[azizaalmardonova96@gmail.com](mailto:azizaalmardonova96@gmail.com)

***Annotatsiya:** Alisher Navoiy ijodida kichik lirik janr sifatida keltirilgan fard ushbu tadqiqotning asosini tashkil etadi. Maqolada Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi yakunlovchi devon “Favoyid ul-kibar” tarkibidagi fardlar saralab chiqilgan. Aynan komil axloq bilan bog‘liq bo‘lgan misralar tahlil qilingan. Tadqiqotda statistik, qiyosiy-tipologik metodlardan foydalangan holda fard janri to‘liq yoritilgan. Bundan tashqari mashhur allomalarimizning qanoat, saxovat, axloqlilik haqidagi o‘g‘itlari keltirilgan. Komil axloqqa erishish uchun har bir insonga qanday xislatlar kerak bo‘lishi aytib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Komillik, axloq, fard, qanoat, futuvvat, muruvvat, muzavvir, tulki, ko‘zgu, la‘b.*

Dunyo yaralibdiki, necha asrlardan buyon insoniyat yaxshi va yomon xulqlar qurshovida yashaydi. Yaxshilik yoki yomonlikni tanlash esa har bir kishining o‘ziga, oilada olgan tarbiyasiga bog‘liq. Tarbiya deganimizda, avvalambor, **shaxs tarbiyasini**, uning axloqiy sifatlarini, komillikka erishish yo‘lini tushunamiz. Bu yo‘lda har bir kishiga odob-axloq, shirinso‘zlik, kamtarlik, mehribonlik, halollik kabi bir qator sifatlar yordam bergan. Komil inson axloqi masalasi faqatgina bir davrda emas, turli davrda o‘zining ahamiyatiga ega bo‘lgan. Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, mashhur shaxslarning faoliyati tashkilotchilik, ulkan aql bilangina emas, balki ularning axloqiy sifatlarga ega bo‘lishi bilan ham xarakterlangan. Odob-axloqli kishi atrofdagilarga yaxshi munosabatda bo‘lish uchun emas, o‘zini hurmat qilish uchun ham harakat qilishi kerak. Sababi o‘zini hurmat qila olgan har qanday kishi, yonidagilarga ziyon yetkazmaslikka, ularni ardoqlashga harakat qiladi. Adabiyotimizda yaxshi xulqqa ega bo‘lgan qahramonlar juda ko‘p. Xususan, xalq og‘zaki ijodining noyob namunasi hisoblangan “Alpomish” dostonining qahramonlarini, aynan axloqiy sifatlarga ega obrazlar desak adashmagan bo‘lamiz. Ularning yurti uchun, qo‘ng‘irot xalqi uchun qilgan qahramonliklari tahsinga sazovor. Tarixda faqat asar qahramonlari emas, balki o‘sha davrdagi mashhur shaxslarning hayot yo‘li ham axloqiy sifatlar bilan yo‘g‘rilgan. Payg‘ambarimiz(s.a.v.)dan “Din nima?”, deb so‘raganlarida “Go‘zal axloq” deb, javob bergan ekanlar. Demak, islom dinining asosi **Axloq** ekan, Qur‘oni Karim esa eng ulug‘ **Axloq Kitobidir**. Mana shunday muqaddas diniy manbalar bilan oziqlangan mumtoz adabiyotimizning asosini ham odob va axloq tashkil etadi.

Odob-axloq tushunchasi doimiy eskirmaydigan, makon va zamon tanlamaydigan umrboqiy mavzulardan biridir. U xoh hozirgi zamonda yoki bir necha asr oldingi davrda bo‘lsin, baribir o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Faqatgina yillar

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

o‘tishi bilan, odamlar hayotining o‘zgarishi, insonlarning odob-axloqini turli ko‘rinishlarda namoyon qiladi. Tarbiyaga doir kitoblarda “Axloq – ijtimoiy ongning eng qadimiy shakli”, deyiladi. Demak, insonlar tug‘ilganidanoq ularning qalbida axloqiy xislatlar mavjud bo‘ladi. Bu tuyg‘ularning yaxshi yoki yomon tomonga o‘zgarib borishi, har bir shaxsning oilada olgan tarbiyasiga, atrofidagi insonlarga, yashayotgan muhitiga bog‘liq. Shu bois bo‘lsa kerak, diniy va dunyoviy kitoblarning barchasida kishilarni yaxshi xulqli bo‘lishi kerakligi uqtiriladi. Sababi yaxshi axloqli insonni iymoni but, aqli raso, yurish-turishi ham joyida bo‘ladi. Bunday kishilar yaxshi axloqi tufayli nafaqat o‘zlariga, balki atrofidagi kishilarga ham yaxshilik ulashadilar. “Axloq” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, ko‘plik shaklidagi va ko‘p ma’noga ega so‘z. Uning tarkibiga sabr, qanoat, insof, adolat, iymon kabi barcha yaxshi xislatlar kiradi. Bizning Sharq allomalarimiz o‘zlarining she’riy va nasriy asarlari orqali insonlarni axloqli bo‘lishga da’vat etishgan.

“Shams ul-millat” deya e’tirof etilgan, mumtoz adabiyotimizning yirik namoyondasi Mir Alisher Navoiy ijodida ham axloq eng ustuvor mavzulardan biridir. Shoir she’riy misralarining deyarli barchasidan axloqli bo‘lish g‘oyasi ufurib turadi. Axloq bo‘lganda ham oddiy emas, “komil axloq”ni ulug‘lagan Navoiy. Bu jihatlarni biz adibning lirik merosida kuzatishimiz mumkin. Ayniqsa uning fardlarida komil axloq haqidagi qarashlari uchraydi. Fard janri adabiyot ixlosmandlarining barchasiga ma’lum. Arabchadan tarjima qilinganda bu so‘z “yakka”, “yolg‘iz” degan ma’nolarni anglatadi. Hajm jihatdan eng kichik lirik janr bo‘lib, ko‘proq falsafiy, tarbiyaviy va ishqiy mavzularda yoziladi. Alisher Navoiy fard janrida ham barakali ijod qilgan. Uning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi to‘rtinchi, ya’ni “Favoyid ul-kibar”devonida 86 ta fard mavjud. Qolgan uchta devonda fardlardan namunalarni uchratmaymiz. Aynan yakunlovchi devonga fardlarning kiritilishini sababi bo‘lsa kerak. Navoiyshunoslarning fikriga ko‘ra, Alisher Navoiy “Favoyid ul-kibar” devoniga keksalik davrida yozgan she’rlarini jamlagan. Fardlarni ham yoshi ulg‘aygan vaqtda yozgan desak, adashmagan bo‘lamiz. Chunki Hazrat Navoiy fardlarini boshidan kechirgan voqealar asosida yozgan. Shoir fardlarini o‘qisangiz, huddi ota-bobolarimizdan o‘tib kelayotgan naqlarni eshitgandek bo‘lasiz. Ya’ni bu bilan uning fardlari tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘gitlardir:

*Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,*

*Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo‘q.[2:745]*

Yuqoridagi fardga e’tibor bersak, “Futuvvat” istilohiga duch kelamiz. Bu atama tasavvufiy adabiyotlarda va adabiyotshunoslar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik”

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

kitobida futuvsatga quyidagicha ta’rif bergan: *“Futuvsatning uch martabasi bor : avval saxovat, ya’ni bor narsasini hech kimdan qizg’anmaslik. Ikkinchisi safo, ya’ni qalbni kibr-u havo, gina-kudurat, qasd-g’azabdan pokiza, pok tutish. Uchinchi vafo, ya’ni hamma vaqt xalq xizmatida bo’lish”*. [5:17] Bu uch martabaning zamirida muruvvat g’oyasi yotadi. Shu sababli bo’lsa kerak, Navoiy muruvvat va futuvsat istilohlarini yonm-yon qo’llaydi. Muruvvatliman degan inson avvalo o’zini emas, boshqalarni o’ylashi kerakligi haqida aytib o’tiladi. Saxovatliman degan har qanday inson o’zgalarga yordam berishi, qalbida faqat yaxshi xislatlar bo’lishi, o’zini nafsoniy istaklaridan ko’ra, nochorlarning dardini ustun qo’yishi haqiqiy muruvvatdir. Bu kabi xislatlarga ega bo’lish uchun esa har bir kishida komil axloq bo’lmog’i lozim.

Alisher Navoiy she’riyatida yoshlar tarbiyasiga oid juda qimmatli ma’lumotlar mavjud. “Favoyid ul-kibar” devonidagi yettinchi fardda shoir insonlarni yolg’onchi va ayyor bo’lmaslikka da’vat etadi:

*Muzavvir makri bo’ldi mujibi qayd*

*Nechukkim, tulki la’bi boisi sayd.* [2:745]

Farddagi notanish so’zlar bilan tanishsak: muzavvir – yolg’onchi, mujib – sabab, la’b – o’yin. Shoir yolg’onni qancha yashirgani bilan oshkor bo’lishini ta’kidlaydi. Misol sifatida tulkini hayotini keltiradi. Bilamizki, tulki har doim o’z maqsadiga yetish uchun xiyla ishlatadi. Alisher Navoiy bu xiylalarning oxiri yaxshilik bilan tugamasligini uqtiradi. Huddi “Kasalni yashirsang, isitmasi oshkor qilgandek”, shu sababli yoshlarga boshqalar oldida uyalib qolmaslik uchun doim halol va to’g’ri so’z bo’lish kerak deydi.

Komil axloqqa ega bo’lishning birlamchi shartlaridan biri qanoatli bo’lishdir. Nafsni tarbiya qilishda ham qanoat alohida ahamiyatga ega. Chunki qanoatli inson, Ollohning berganlariga rozi bo’ladi. Nafsini ham shu barobarida jilovlab boradi. Aksincha qanoatsiz kishilar har yerda xor-u zor bo’lishini Alisher Navoiy quyidagi fardda ta’kidlaydi:

*Elni xor aylagan tama’ bilgil.*

*Doimo azza manqana bilgil.* [2:747]

Islom olamiga oid asarlari bilan mashhur bo’lgan Abu Homid G’azzoliy o’zining “Mukoshafat ul-qulub” asarida komil axloqqa erishishning eng birlamchi sharti qanoat ekanligini aytib o’tgan. Xususan, asardagi “Qanoatning fazilati” bobida quyidagilar uchraydi: *“Rasululloh (s.a.v) marhamat qildilar:*

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

*-Islomlikka musharraf bo‘lgan, uning axloq asoslariga ergashgan, halol topganiga qanoat qilgan va QANOATLI bo‘lgan kimsalar naqadar baxtiyordirlar”.[1:96]*

Hazrat Navoiy ham yuqoridagi fardda boriga qanoat qilmaslik elni xor qilishini uqtiradi. Tamsil san’atini qo‘llash orqali fikrini dalillaydi. Misol sifatida esa “Qanoat qilgan kimsa azizdir” hadisini keltiradi. Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, boriga qanoat qilgan kimsalar hamisha baxtli bo‘ladilar. “Mukoshafat ul-qulub” asarida qanoatli insonlar baxtli bo‘lishlari bilan birga boy ham hisoblanishi haqida aytiladi :

*“Hazrati Muso Rabbidan so‘radi :*

- Qaysi bandalaring eng boy hisoblanadi? Rabbi aytdi:*
- Eng ko‘p qanoatli bo‘lganlar!”..[1:97]*

Alloh taolo yaratqilarining ichida eng buyugi inson sanaladi. Shu bois bo‘lsa kerak, turli sinovlar ham aynan ularga beriladi. “Favoyid ul-kibar” devonining 24-fardida Alisher Navoiy bu dunyoning barcha boyliklariga erishib bo‘lmasligi haqida ta’kidlaydi. Alloh odamzotni shunday mukammal qilib yaratganki, unga qancha boylik berilsa kam tuyulaveradi. Yoki qancha baxtli yashasa, yanada baxtli bo‘lishni istaydi. Hazrat Navoiy ham shunga ishora qilib, hamma narsaga birdan erishaman degan kishi, go‘yo kemanding ikki uchini tutaman deb, o‘zi cho‘kib ketgan insonlarga o‘xshashini aytib o‘tgan.

*Dunyovu uqbo ikkisi jam o‘lmas, ey rafiq.*

*Kimki ikki kema uchini tutsa, bo‘lur g‘ariq.[2:748]*

Yuqoridagi fard hozirgi zamonamiz uchun ham juda zarurdir. Sababi bugungi kun yoshlari tez fursatda, qiyinchiliksiz barcha yutuqlarga erishishni xohlaydi. Ammo har qanday yutuqning ortida og‘ir va mashaqqatli mehnat borligini bilmaydilar. Alisher Navoiyning bu fardi esa yoshlar tarbiyasi uchun juda zarur bo‘lgan vositadir.

Mir Alisher Navoiy birovlarining ustidan kulishni, kishilarning xatosini yuziga solishni yomon ko‘rgan. Ammo haqiqatgo‘y shoirimiz biror aybi yoki xatosi bo‘lgan inson, albatta uni tan olishni ham bilishi kerakligini ta’kidlaydi:

*Kishi aybing desa, dam urmag‘ilkim, ul erur ko‘zgu,*

*Chu ko‘zgu tiyra bo‘ldi, o‘zga aybing zohir aylarmu.[2:748]*

Xalqimiz orasida “Beayb Parvardigor”, degan jumla mavjud. Tirik jon borki, umri davomida kichik bo‘lsa-da xato qiladi. Xarakterida yoki yurish - turishida kamchiligi bo‘lishi mumkin. Bu kabi kamchilik va xatolarni tuzatishni har bir kishiga eng yaqin insoni ayta oladi. Chunki dushmaningiz hech qachon kamchiligizni yuzizga aytmaydi. Sizni qilgan har bitta xatongiz uni quvontiradi. Shu sababli ham Navoiy kamchiligingizni yuzingizga kim aytsa ham ranjimagin deydi. U sen uchun

# “IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ko‘zgu dir, deya uqtiradi. Agar o‘sha ko‘zguni (yaqin insoningni, misol uchun do‘stingni) ranjitsang, ko‘zgu xiralashgandek, uning qalbi og‘riydi va xatolaringni ko‘rsatishni istamaydi. Bu esa seni axloqsiz insonlar safida bo‘lishingni ta‘minlaydi.

Alisher Navoiy fardlari shunchalar rang-barangki, biri ikkinchisini takrorlamaydi. Ulardagi g‘oya ham turlichadir. Ammo barchasida komil axloq sifatleri mavjud ekanligi bilan ajralib turadi. Ba‘zi insonlar borki, o‘zining aybini, xato va kamchiliklarini tuzatishdan ko‘ra, o‘zgalarnikini yuziga solishdan rohatlanadi. Bu kabi kishilar bir necha asr oldin ham mavjud bo‘lgan, hozirgi zamonimizda ham topiladi. Shunday kishilarga nisbatan xalqimizda ajoyib maqol mavjud: “Avval o‘zingga boq, keyin nog‘ora qoq”. “Favoyid ul-kibar” devonidagi yana bir fard aynan, shu mavzu haqida:

*Kishi aybin yuziga qilma izhor,*

*Taammul ayla o‘z aybing‘a zinhor.[2:748]*

Alisher Navoiy birovni aybini yuziga aytishga shoshmaslikni, avval o‘z kamchiliklarini tahlil qilib ko‘rish zarurligini ta‘kidlaydi. Kamchilik hamma insonda bo‘ladi, lekin bu xatolarni o‘rganib, boshqa shu ishni takrorlamaslik har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Komil axloqliman degan har qanday kishi bir fikrlab ko‘rsa, qayerda xato qilgani, qanday kamchiliklari borligi aniqlashadi. Ammo ba‘zi insonlar bu xatolarni tan olgisi kelmaydi. Shu xarakteri sabab hayotda juda ko‘p pand yeydi.

Xulosa qilib aytganda, Navoiyning butun ijodi odob-axloq va komil inson masalalariga bag‘ishlangan. Bunga adibning “Mahbub ul-qulub”, “Xamsa” va ayrim to‘rtliklari orqali guvoh bo‘lishimiz mumkin. Hazrat Navoiyning fardlari esa komil axloq sifatlarini yoritib bergan durdonalardir. Navoiy nafaqat shohlarni balki, butun insoniyatni yaxshilik qilishga, kuchli mehnat qilib nafsini mag‘lub etishga chorlaydi. Buni “Xamsa” dagi Farhod, shoh Bahrom, Iskandar qahramonlari orqali ochib beradi. Xullas, bir jumla bilan aytganda, Mir Alisher Navoiyning butun ijodi insoniyatni nafsini yengib, komillik sari intilishga qaratilgan. Bu durdonalardan bahramand bo‘lgan har qanday kishida yuksak axloq shakllanadi. Ana o‘shanda har birimizning hayotimiz farovon, yurtimiz tinch, odamlar esa doimo baxtli yashaydilar. Chunki qanoatli, iymonli, diyonatli bo‘lgan kimsalardan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Ular ulug‘ bobomiz Navoiy kabi komil axloqi sabab bir necha asrlar davomida barhayot yashaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абу Хомид Ғаззолий. Мукошафат ул-кулуб.-Тошкент.:Адолат,2002.
2. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний.Фавойид ул-кибар.- IV девон.Нашрга тайёрловчи О.Давлатов.-Тошкент.:Тамаддун,2011.

# “IZLANISH SAMARALARI”

## №9 mavzusidagi respublika an’anaviy ilmiy-nazariy anjumani

3. Алишер Навоий. Фавойид ул-кибар.-Тўла асарлар тўплами, 10 жилдлик, 4-жилд.-Т.,Ғафур Ғулом номидаги НМИУ,2011.
4. Jabborov.N.Alisher Navoiy asarlarida futuvvat g‘oyasining badiiy talqini.-Т.: “Alisher Navoiy va XXI asr”,2021.
5. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати (таржимон: Н.Комилов).-Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти 2011.
6. Боқижон Тўхлиев. Алишер Навоий ва ёшлар тарбияси.Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги, 30 жилдлик, 13-жилд.-Т.,Тамаддун,2021.
7. Олимжон Давлатов. Алишер Навоий шеърлятида Куръон оятлари ва ҳадислар. Истиқлол даври ўзбек навоийшунослиги, 30 жилдлик, 28-жилд.-Т.,Тамаддун,2021.